

# FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA FE'LLARNING QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI

**Xalillayev A.K**

*O'zDJTU Roman-germanfilologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Oqbutayeva Tumora**

*Ilmiy rahbar:F.f.f.d(PhD)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola qardosh bo'lmagan tillarni jumladan, fransuz va o'zbek tillarida fe'llarning qo'llanilish xususiyatlarini tavsiflashdan iborat. Bu albatta hozirgi zamon tilshunosligida muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Présent de l'indicatif, Imparfait de l'indicatif, Passé simple, Plus-que-parfait, Futur simple, Futur immedait, Futur dans le passé, sintaktik, kategoriyalar.*

Har bir tilning o'ziga xos grammatikasi so'z tuzulishi va fe'llar tizimi bor. Fe'l haqida gapirar ekanmiz shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, fe'l asosiy so'z turkumlaridan biri bo'lib, o'z ma'nosi, grammatik shakllari va sintaktik vazifalari bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Fe'l harakat bildiruvchi so'z turkumi va shu turkumga oid har bir so'z. Grammatikada "harakat" (movement) so'zi keng tushunchali bo'lib, nafaqat harakatni, balki holat yoki hodisani ham bildiradi. Masalan, yugurmoq (curir), sakramoq(sauter), uxlamoq (dormir), sevmok (aimer), yig'lamoq (pleurer). Asosan fe'l so'z turkumi fransuz tilida ham o'zbek tilida ham kesim vazifasini bajaradi. Ikki tilda ham fe'l so'z turkumining o'xshash jihatlari mavjud. Fransuz tilida fe'l zamonlarining bir nechta kategoriyalari mavjud.

## **Présent de l'indicatif.**

Hozirgi zamon (Présent de l'indicatif) hozir ayni paytda sodir bo'layotgan ish harakatni ifodalaydi. O'zbek tilida bu zamon hozirgi zamon fe'lga to'g'ri keladi. Example: 1.Je parle-men gapiryapman. Biroq fransuz tilida Hozirgi zamon fe'lini uch guruhga bo'lib o'rganamiz. Yasalishi: 1-guruh fe'llari -er bilan tugagan fe'llarni o'z ichiga oladi. Example: "Acheter"- sotib olmoq; Birlikda: Je achete Ko'plikda: Ils (Elles) achètent 2-guruh fe'llari -ir bilan tugagan fe'llarni o'z ichiga oladi. Example: "finir"-tugatmoq; Birlikda: Je finis Ko'plikda: Ils (Elles) finissent 3-guruh fe'llari noto'g'ri tuslanuvchi fe'llardir. Ushbu guruh fe'llarini ma'lum kichik guruhlarga bo'lib o'rganamiz. Chunki bu guruh fe'llari o'zgaruvchan hisoblanadi. Example: "être"-bo'lmoq; Birlikda: Je suis Ko'plikda: Ils(Elles)sont

O'zbek tilida hozirgi zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytda sodir bo'ladigan harakatni yoki doimiy harakatni ifodalaydi. Hozirgi zamon kichik o'z ichki guruhga bo'linadi. 1. Hozirgi-kelasi zamon: o'qiyman. 2.Hozirgi zamon davom fe'li: o'qiyapman. Bu o'zbek tilining hozirgi zamon shakli, fransuz tili grammatikasidan



tubdan farq qiladi. Ammo ikki tilda ham, ish-harakatning ayni paytda sodir bo'lganini ifodalaydi. Fransuz tilida olmoshli fe'llar mavjud, lekin o'zbek tilida olmoshli fe'llar mavjud emas. Fransuz tilida fe'llar shaxsga qarab o'zgaradi. Har bir shaxs uchun alohida qo'shimchalar qo'llaniladi. Masalan, "je"(men), "tu" ( sen), "il/elle"(u) va boshqalar.<sup>2</sup> O'zbek tilida ham fe'llar shaxsga qarab o'zgaradi, lekin shaxsni ifodalovchi qo'shimchalar ko'proq oddiy va aniq. Masalan, "men" (men), "sen" (sen)," u" (u) va boshqalar.<sup>3</sup> Fransuz tilida fe'llar qoidalar asosida o'zgaradi, o'zbek tilida esa qo'shimchalar asosida o'zgaradi. Fransuz tilida fe'l zamonlarining bir qancha kategoriyalari bor:

1. Imparfait de l'indicatif (o'tgan zamon davomli fe'li).
  2. Passé simple (o'tgan sodda zamon).
- Plus-que-parfait (uzoq o'tgan zamon).
3. Futur simple (kelasi zamon).
  4. Futur immedait (yaqin kelasi zamon).
  5. Futur dans le passé (o'tgan kelasi zamon) va boshqalar.<sup>1</sup>

O'zbek tilida fe'llarning uchta zamon shakli mavjud:

1. O'tgan zamon;
2. Hozirgi zamon;
3. Kelasi zamon;

O'zbek tilida fe'llarning zamon shakllari qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Masalan, -di, -gan; -yap, -moqda, - yotir; - moqchi, -ay va boshqalar. Masalan, O'qidi, yotmoqda, bormoqchi va bu fe'llar o'z anglatayotgan ma'nolariga qarab so'zlashuv uslubida qo'llaniladi. O'zbek tilida fe'llar kengroq o'rganiladi. Asosan bizda fe'llarning ma'no guruhlari, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, o'timli va o'timsiz fe'llar, fe'l nisbatlari, fe'lning vazifa shakllari, to'liqsiz fe'llar, fe'lning munosabat shakllari, fe'llarning yasalishi, ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi va fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari mavjud. Bular juda keng tushuncha va chuqur o'rganilish talab etiladigan fe'l mavzularidir. Bu fe'llar biror bir harakatni bildirish, amalni ifodalash, biror narsaga ta'sir qilish, biror bir ishni bajarish yoki faoliyatni ko'rsatish maqsadida ishlatiladi. Tillarning boshqa tillar bilan aloqasi natijasida ularning leksikasida, strukturasi o'zgarishlar bo'lishi tabiiy hol, lekin grammatikasida o'zgarishlar bo'lmaydi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, qardosh bo'lmagan tillarning so'z boyligida alohida so'zlarning ma'no jihatdan o'xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bu ikkala tilda ham huddi shunday hodisalar uchrashi mumkin. Fransuz tilida ham, o'zbek tilida ham fe'ldan boshqa so'z turkumlari yasalishi mumkin, masalan, fe'ldan sifat yasalishi: 1. On nous a raconté des histoires amusantes. (Adjectif-verbal) - Bizga qiziqarli hikoyalar gapirib berishdi. 2. Fe'ldan sifat yasalishi: U menga to'satdan achchiq qildi. (Fe'l-sifat) - Il m'a mis soudainement en colère.<sup>4</sup>

Fransuz tili morfologiyasi analitizim xarakterlidir ya'ni murakkab zamonlar, nisbat, qiyosiy darajalarning analitik shakllari, yordamchi so'zlar keng qo'llaniladi.



**Xulosa:** qilib aytganda, fransuz va o'zbek tillarida fe'llarning qo'llanilish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har ikki tilning fe'llari o'zgarishi zamonlar va shaxslar bilan bog'liq jihatlari mavjud. Bu farqlar til o'rganishda va muloqotda muhim ahamiyatga ega.

### QO'LLANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.E.Mamatov, M.M.Mirxoliqov, A. S. Asqarov "Fransuz tilining amaliy grammatikasi", Toshkent-2015.
2. D. A. Aliqulova, D.A. Jo'raboyeva "Fransuz tili darsligi" Toshkent-1999.
3. X. S. Muhiddinova, Z. I. Salisheva, X. S. Po'latova "O'zbek tili" Toshkent-2006.
4. G'. Abdurahmanova, Sh.Shukurov, Q. Mahmudov "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" Toshkent-2008.
5. N. Rasulova "Ona tilidan ma'ruzalar" Toshkent-2019.
6. 1.69- bet ,72-73- bet "Fransuz tilining amaliy grammatikasi", Toshkent -2015.
7. 2. 92-bet "Fransuz tili darsligi " Toshkent-1999
8. 3.99- bet "O'zbek tili darsligi" Toshkent- 2006
9. 118- bet " Ozbek tilining tarixiy grammatikasi " Toshkent -2008.
10. 162- bet " Ona tilidan ma'ruzalar" Toshkent -2019.